

**O'zbekiston badiiy akademiyasi  
Kamoliddin Bexzod nomidagi milliy  
rassomchilik va dizayn instituti**

# **Referat**

**MAVZU: Indoneziya kostyumi**

**Bajardi:026-17 gurux talabasi  
Pardaeva G.**

**Toshkent 2018**

## **REJA:**

1. Indoneziya mamlakati haqida. Indoneziya aholisi va e'tiqod dinlari.
2. Indoneziya san'ati va madaniyati.
3. Arxitekturasi
4. Indoneziya milliy kostyumlari
  - a) Erkaklar kostyumi
  - b) Ayollar kostyumi

## **1. Indoneziya mamlakati haqida. Indoneziya aholisi va e'tiqod dirlari**

**Indoneziya** – yashil orollar mamlakati. Uning o'ziga xos tabiatি, ob-havosi, uzoq o'tmishga ega bo'lgan xalqning madanaiyati bugungi kunda butun dunyo sayyoohlarini o'ziga jalb etadi. Indoneziya dunyodagi asosiy turistik mamlakatlardan biri bo'lib, bu yerlardan yil davomida sayyoohlar oqimi uzilmaydi.



Indoneziya Respublikasi Janubi – Sharqiy Osiyoda, Tinch va Hind okeanlari o'rtaida, ekvator ustida joylashgan. Indoneziya asosan 5 ta katta orollar: Sumatra, Yava, Kalimantan, sulavesi, Yangi Gvineya va ko'plab mayda orollardan iborat. **Poytaxti** – **Jakarta** shaxri. Mamlakat teritoriyasining uchdan ikki qismi nam tropik o'rmonlardan iborat, kamroq o'rmonlar va savannalar ham uchraydi.

Indoneziya so'zi “**Indiya**” (hind) va grekcha “**nesos**” (orol) so'zlaridab tashkil topgan bo'lib, bu nom mamlakatning Hind va Tinch okeanlarda joylashgani, Hindistonga yaqin ekanligiga ishora qiladi. Haqiqatan ham, bu arxipelagda yashovchi ko'plab xalqlar madaniyatida hind madaniyati ta'siri sezilarli ekanligi ko'rinish turadi. 216 mln.ga yaqin aholi 365 etnik guruhdan tashkil topgan. 46 % yavaliklar, 13 % sundlar, 6 % madurlar, 5,5 % malaylar, shuningdek, buglar, balilar, batrok va manankabon, makosari va boshqa etnik qatlamlardan iborat. Mamlakatda hindlar, arablar, xitoylar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Aholining asosiy

qismi – 87 % ga yaqini musulmon bo’lib, islom diniga e’tiqod qiladi. Xristianlik, buddizm, induizm dinlari ham keng tarqalgan.

## **2. Indoneziya san’ati va madaniyati.**

**Indoneziya madaniyatining** tarixi mozolit davri (mil.av. 7 – 5 – ming yilliklar) ga oid tasvirlar, neolit davridagi tosh maqbara va tobutlardagi rasmlarda nomoyon bo’ladi. Keyingi davrda qurilgan ehromlarning devordagi rasmlarda xalq afsonalariga oid syujetlar aks etgan.

Indoneziya madaniyati hind yava madaniyatining va boshqa xalqlar madaniyatining rivojlanishi aosida vujudga kelgan. Lekin bugungi kunda Indoneziya madaniyatiga ko’p yillar davomida bu orollarga kelib o’rnashgan arablar, xitoylar, partugallar gollandlar va inglizlarning ham ta’siri sezilardi. Ammo Indoneziya madaniyati va san’atida milliy an’anaviylik yetakchilik qiladi.

Indoneziya madaniyati asosasn ikki etnik guruh – g’arbiy va sharqiy guruhlardan iborat. Garbiy guruhga katta Zond va Bali orollari kiradi. Bu guruh madaniyatida Janubiy Osiyo xalqlari madaniyatining ta’siri aniq ko’rinadi. Sharqiy guruhga Malukk, Kichik Zond, Irian Joya orollari kiradi. Bu guruh madaniyatiga esa papuas – melenezey madaniyati ko’proq ta’sir ko’rsatgan.



**Rang tasvir san'ati.** Qadimgi Indoneziyaliklar devorlarga mahalliy minerallardan bo'lган bo'yoqlar bilan rasm solganlar. Ular bu rasmlarda odamlar hayvonlarni, qushlar, baliqlar va qayiqlarni, shuningdek, afsungarlik va tatemik ramzlarni ifodalaganlar. O'rta asrlar Indoneziya tasviriy san'ati alohida bezakliligi va soddalashtirilgan grafik obrazlari bilan xarakterlanadi. Islom dini tarqalishi (yojilishi) davriga kelib tasviriy san'atda tanazzul davri boshlandi, chunki hayvonlar va qushlar tasvirini chizish qonunan man etilgan edi, lekin musulmon rassomlari Qur'on syujetidan olingan mavzular asosida ko'plab polotnolar yaratishdi. Bu davrda tasviriy san'at turli ornamntlar orqali ko'rsatilgan. Indoneziyada batikli tasviriy san'at keng tarqalgan, bunda matoga eritilgan mum bilan rasm chiziladi, so'ngra mato bo'yaladi.

**Tasviriy san'ati.** Indoneziyada budda haykallari, qo'ng'iroqchalar, odam figuralari, patnos vaza kabi madeaniy ashyolar bronzadan ishlangan. Ularning o'simliksimon naqshlar , ornamntlar bilan bezatilgan, shuningdek, hayvonloar va odamlar tasvirlari ham tushirilgan. Shu davrga kelib, spool (keramika) haykallar diniy marosimlar va testr uchun niqoblar ishlash paydo bo'ldi. Badiiy an'analar avloddan avlodga suyak va taxtaga naqshlar o'yish va an'anaviy teatr san'ati orqali o'tib kelgan.



### 3. Arxitekturasi.

Indoneziya arxitekturasi tarixida qadimiylar qurilishlarga butun mamlakat teritoriyasida uchraydigan **megalitik** imoratlar mansub (eramizgacha I ming yilliklar). O'rta asrlar arxitekturasida Hindistonda

kirib kelgan buddizm va yahudiylik memorchiligi elementlari uchraydi. VIII – XV asrlarda arxitekturasida yetakchi **chandi** (ibodatxona va maqbralar uyg'unligi) **vixar** bo'lgan, XV – XVI asrlarda chandisiya qurulishlar bo'lgan. An'analarga ko'ra, bezaklar (**haramakora**) va tosh haykallar ishlatilgan. Mashxur ibodatxonalar kompleksiga Markaziy Yavadagi Dieng Bobobudur, Mendut, Prombanan, Koloson, (VIII – X asrlar) Sharqiy Yevadagi Travulan, Panataran, Singasari (X – XI asrlar), Sumatrada Padang – Lavas, Balida Besakix, Gua, Gatjax komplekslari kiradi.



**Qadimgi hindu Prombanan  
ibodatxonasi**



Islom dini kirib kelishi bilan aswosiy arxitektura qurilishi, masjidlar qurilishi bo'lib qoldi. Bu qurulishlar asosan kubik shaklada dumaloq tomli qilib qurilgan. Ana shulardan **Demakdagi (1478 - yil)**, **Xudusdagi (XVI asr)** masjidlaridir. Mustamlakachilik davrida arxitektura shakllari va qurilishlar yana o'zgardi. Xitoy, Galland, tuzem kvartallari, shaxarlar paydo bo'la boshladi. Bir qavatli tosh uylar, katolik va protestant cherkovlari qurildi.

XVIII asr oxirida Jakartada (1826 - yil) "**Klassik ampir**" usluida general – gubernator (keyinchalik prezident) saroyi, Milliy muzey binosi (1868 - yil) qurildi. XX asr boshida "**Tropik madern**" uslubida binolar qurilgan. Katta arxitektura ansambllarida biton, shisha ishlatilgan mehnxonalar, muzey, unbivermag, turar joylar, ayraportlar barpo et6ildi. Mamlalatning zamonaviy arxitekturasi jahon memorchiligi va mahlliyan'an'analarni aks ettiradi.

**Borobudur ibodatxonasi kompleksi.** IX asrga oid qadimgi budda yodgorliklaridan biridir. Yodgorlik Markaziy Yavada Jakartadan shimoliyg'arbiy tomonda Magekongda joylfshgandir. Ibodatxona 6ta kvadrat shakildagiva 3ta pastki aylana platformalardan iborat. Ulkan ibodatxonaning devorlari 2672ta tosh panellar va 504 ta Budda xaekallari bilan bezatilgan. Ibodatxonaning bosh gumbazi yuqori maydonning markazida joylashgan va atrofiga 72 ta Budda xaekallari aylantirib qurilgan . Borobudur ibodatxonasi buddistlar uchun ziyoratgox xisoblanadi. Ziyoratchilar uchun sayoxat yodgorliklardagi Budda xaykali oyoqkari ostidan boshlanib spiralsimon shakilda yuqorilab boradi, budda dini k osmologiyasiga asosan bu 3 bosqichda bo'ladi.



## **Bobobudur kompleksi**

Ziyoratchilar “Istaklar dunyodi”, “Shakllar dunyosi” va “Shaklsizlik dunyosi” deb nomlangan bosqichlardan o’tadilar. Ziyorat davomida yodgorlikning o’zi ziyoratchilar uchun yo’l ko’rsatib turadi. Ziyoratchilar devor panellari va panjaralarda ko’rsatilgan belgilar asosida zinalar va yo’llardan o’tib boradilar. Qadimgi budda yodgorligi bo’lgan Borobudur kompleksi janubiy yarim shardagi ulkan budda yodgorligi bo’lib, uni dunyo mo’jizalaridan biri deb qabul qilish mumkin.

**Qadimgi hindu prambanan ibodatxonasi.** Prambanan ibodatxonasi Yavadagi ikkinchi noyob qadimiylar arhitektura yodgorligidir. Prambanan ibodatxona kompleksi IX – X asrlarda qurilgan bo’lib, Jakartadan shimoliy – sharqiy tomonda joylashgan. Ibodatxona janubi sharqiy osiyodagi eng katta buddaviylik ibodatxonalaridan biri

hisoblanadi. Ibodatxona balandligi 47 metr bo'lib, bir necha kompleksdan iborat. Tosh barelef naqshlarida budda dinidagi Shiva, Vishna, Brahma xudolari bilan bog'liq sahnalar aks ettirilgan.

#### **4. Indoneziya milliy kostyumlari**

Ma'lumki, har bir mamlakat va xalqning madaniyati uning milliy kiyimlarida ham ifodalanadi. Indoneziya ham Hindiston kabi turli etnik guruhlar yashovchi mamlakat bo'lib, ularning madaniyati, san'ati, kiyimlari ham turlicha. Indoneziya xalqi ham Hindlar kabi musiqa, raqs, ommaviy baqyramlarga boy xalq.

Masalan, Bali orolda yashovchi har bir odam musiqa va raqs san'atini juda qadrlaydi. Ommaviy raqlar ijrosida turli – tuman kiyimlar kiyib bezanishadi.

Indoneziya madaniyati va san'ati tarixi bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, bu ayniqsa, yirik shaxarlarda yashovchi odamlarning liboslarida ham o'z aksini topadi. Katta shaxarlarda



yashovchilarning kiyimlari zamonaviy Yevropacha kiyimlarning tropic shakllarda ko'rindi. Indoneziyada tarixiy – milliy kiyimlar bilan bir

qatorda islom diniga e'tiqot qiluvchilar **Jubla** kiyishadi va ayollar boshlariga albatta ro'mol o'raydi.

An'anaviy milliy kiyimlarni asosan qishloqlarda yashovchilarning egnida uchrashi mu7mkin. Ammo butun malakat aholisi egnida **batikli** matodan tikilgan ko'yaklar ko'ftalar, milliy kiyimlarni ko'rishimiz mumkin. Chunki, Indoneziya batikning Vatani hisoblanadi. Ayniqsa, Yeva orolida Batik san'ati yuksak tehnologik darajaga va nafislikka ko'tarilgan. Indoneziya klassik Batigi kam rangli bo'lган, chunki, batik tayyorlash tehnikasining o'zi uning palitrasini cheklab qo'ygan, rang o'n martalab bo'yalganda hosil bo'lган, Koloritda fil suyagi ranglari, jigarrang rangning barcha turlari (Ottenka) va ayniqsa, yorqin rang bo'lган **Indigo** (Nil rang, ko'k bo'yoq) ishtirok etadi. Ko'k ranglarni tayyorlash retsepti va rasmlar har bir usta oilasining eng muhim siri bo'lган. Batik rasmlari ham odamlarning qanday tabaqaga mansubligini bildirgan. Podsho va qirollar arnamentlarini takrorlashga hech kimning haqqibo'lмаган. Har bir Indoneziya qizining sepida albatta, batik asosida ishlangan kiyimlar, marosimlarda ishlatiladigan bezak motolari, devorga osiladigan fanno va pardalar bo'lган.



An'anaviy milliy kiyimlardan asosiysi **Kain** ayollar belidan pastga o'rab yuradigan rangli matodan iborat yubka sifat kiyim bo'lган. U paxta matodan Batikning, yoki shaxarliklar va yuqori tabaqa odamlari odamlari kiyadigan shoi matodan bo'lган. Kain kalta yoki uzun shakllarda

bo'ladi. Kain razmeridagi matoning slidr shaklida tikilgani Sarong deb atalgan. Bu kiyimda ham asosan ayollar, erkakalar ham kiyishgan. Erkaklar belidan pastdan, ayollar esa 2 xil : beldan va ko'krakdan pastga kiyishadi. Bu kiyimning bezaklari Kain singari bo'lgan. Sarongni kundalik va tantalar uchun kiyishgan. Bugungi kunda sarongni ayollar uyda, ko'chada tantanalar va martosimlarda kiyishsa, erkakalra Sarongni asosiy uyda va dam olish paytida kiyishadi.

Tropik mamlakatda beldan yuqori qismga asosan hech qanday kiyim kiyishmagan. Ammo ayollar yuqori qismga **kembenni** – uzun sharfsimon matoni ko'krak atrofiga o'rab olishgan yoki, bir yelkani ochiq qoldirib o'rashgan. Shuningdek, **kebayya** - uzun yengli, kalta keng ko'fta yoki, past o'ymali lif kiyishgan. Keng tarqalgan Indoneziya milliy kiyimlaridan yana biri **seledang** bo'lib, asosan Yava orolida tayyorlanadi. Bu kiyim ham erkaklar va ayollar uchun mo'ljallanib, ko'p vazifali kiyim hisoblanadi. **Seladang** yelkaga yopib tashlanib kiyim vazifasini bajaradi yok, asosiy kiyimga qo'shimcha bezak sifatida ishlatiladi, quyoshdan saqlanish maqsadida boshga yoki yelkaga o'rab olishadi.

Ayollar esa **seledangni** bolasini yoki biror yukni bog'lab ko'tarib yurish uchun ishlatishadi. **Seledang** 2000x53, 207x107, 240x90 razmerlarda bo'ladi. Qizil, to'q qizil, yashil ko'k ranglarda batikli, gullar, naqshlar tikilgan, bezatilgan bo'ladi. Shoyi matodan tikilgan



**sarong** va **seledanglar** rang - barang matolardan tikilib, oltin iplar bilan gullar, naqshlar tikilgan, bashing bezatilgan bo'ladi.

Indoneziyalik erkaklar asosan **kain** kiyishgan, hozir bu kiyim uyda va norasmiy holatlarda kiyiladi. Shuningdek **sarang** ham ayollar va erkaklar kiyimi hisoblanadi.

Bosh kiyim sifatida erkaklar **pichi** – qora duxobadan tikilgan shapka kiyiladi, milliy an'anlarga sadoqatli bo'lgan yavaliklar esa batikli ro'molni pilotkaga o'xshatib taxlab kiyishgan.

Oyoq kiyim sifatida hindcha sandallar, yevropacha tuflı va shippaklar kiyiladi.

Milliy bayramlar va turli tantanalarda Indoneziya xalqi juda xilma – xil va bashang kiyinadi. Asosan batikli matolar, parcha shoyi matolardan tikilgan kiyimlar kiyishib, ayololar qimmatbaho zeb – ziynatlar, munchoqlar taqib bezanishadi. Boshiga esa turli shakkllardagi tojlar, tillaqoshlar, gullardan chambaraklar taqishgan. Ayniqsa sochlarini magnoliya gullari bilan bezashga e'tibor berishadi.